

TALABALARDA IJODIY FAOLLIK VA MOTIVATSIYANI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Yuldasheva Oydinoy Murodjon qizi

ALFRAGANUS UNIVERSITY

2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada talabalarda ijodiy faollik va motivatsiyani shakllantirishning ilmiy asoslari asoslab berildi. Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar, global integratsiya jarayonlari, mehnat bozoridagi raqobatning kuchayishi talabalardan nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarga, balki ijtimoiy mas'uliyat, kommunikativlik, moslashuvchanlik kabi ijtimoiy-maxsus kompetensiyalarga ega bo'lish zamon talabidir.

Kalit so'zlar: ijodiy faollik, motivatsiya, zamonaviy jamiyat, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar, global integratsiya jarayonlari, mehnat bozori, raqobat, kasbiy bilim, ko'nikma, kommunikativlik, moslashuvchanlik.

АННОТАЦИЯ

В статье обоснованы научные основы формирования творческой активности и мотивации у студентов. В условиях современного общества социально-экономические и культурные изменения, процессы глобальной интеграции, усиление конкуренции на рынке труда требуют от студентов не только профессиональных знаний и навыков, но и обладания социально-специфическими компетенциями, такими как социальная ответственность, коммуникативность, адаптивность, что является требованием времени.

Ключевые слова: творческая активность, мотивация, современное общество, социально-экономические и культурные изменения, процессы глобальной интеграции, рынок труда, конкуренция, профессиональные знания, навыки, коммуникативность, адаптивность.

ABSTRACT

The article substantiates the scientific foundations for developing students' creative activity and motivation. In the context of modern society, socio-economic and cultural changes, processes of global integration, and increasing competition in the labor market require students not only to possess professional knowledge and skills but also to acquire socio-special competences such as social responsibility, communication skills, and adaptability, which are essential in today's world.

Keywords: creative activity, motivation, modern society, socio-economic and cultural changes, global integration processes, labor market, competition, professional knowledge, skills, communication, adaptability.

KIRISH

Ijtimoiy-maxsus kompetentlik bu – talabaning kasbiy faoliyatni samarali olib borishi uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy va maxsus bilim, ko‘nikma hamda malakalarning uyg‘unligidir. Shaxsning jamiyatda va o‘zining kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli harakat qila olishini ta‘minlovchi zarur bilim, ko‘nikma, malaka va xulq-atvorlar majmuasidir [1, 23-b.]. Bu kompetentlik turi ikki asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: birinchidan, insonning ijtimoiy muhitda o‘zini tutishi, boshqalar bilan munosabatlari, jamoada ishlay olish qobiliyati, ikkinchidan esa, uning kasbiy yo‘nalishdagi aniq faoliyatida zarur bo‘lgan malaka va axloqiy fazilatlari.

Kompetensiya - u yoki bu soha bo‘yicha bilimdonlik. “Kompetensiya” (lot. competense - erishyapman, munosibman, loyiqliman): muayyan davlat tashkiloti (mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, nizom yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi, u yoki bu sohadagi bilimlar, tajribalar majmui [2, 56-b.]. Mazkur tushunchaning ijtimoiy mazmuni juda keng bo‘lib, u ishlab chiqarishning qariyb barcha yo‘nalishlarida qo‘llaniladi. Kompetensiya turli soha mutaxassislari faoliyatiga qo‘yiladigan zamonaviy talablar majmuiga teng bo‘lib, uning kelib chiqish tarixi boshqaruv nazariyasi, ish jarayonini ishlab chiqarish maqsadiga adekvat va to‘liq mos tarzda to‘g’ri boshqarish asosida uning samaradorligini so‘zsiz ta‘minlash, menejmentlik amaliyoti, ishlab chiqarish jarayonidagi yuqori va pastki xodimlar mehnat faoliyatini qo‘yilgan maqsad va samaradorlikka yo‘naltirish bilan bog‘liqdir.

Kompetensiya asoslangan shaxsni boshqarish yondashuvining asoschisi sifatida David Mc Clelland nomini qayd etish zarur. Olim ishlab chiqarish jarayoni xususiyatlarining psixologik aspektlarini o‘rgangan bo‘lib, mutaxassis motivatsiyasini ishlab chiqarish jarayoni va maqsadlari bilan uzviy birlashtirish nazariyasining asoschisi sifatida taniladi [3, 42-b.].

Tarixiy jihatdan ta’lim tizimida “kompetentlik” tushunchasining kirib kelishi va uning ahamiyatining qabul qilinishiga nisbatan quyidagi bosqichlar ajratiladi: Birinchi bosqichda (1960-1970 yillar) - ilmiy doiralar va muomalaga «kompetensiya» va «kompetentlik» tushunchalari kirib keldi va ularning amal qilish qoidalari, qo‘llanilish xususiyatlari belgilandi. Birinchi bor “kompetensiya” atamasi 1965 yilda Massachusetts universiteti o‘qituvchisi N.Xomskiy tomonidan ishlatilgan. Bu so‘zning semantik chegarasi bugungi kunda juda keng bo‘lib, aslida bu so‘z “kelishuv”, “kelishuvchanlik”, “biror bir narsaga mos kelish”, “mos bo‘lish”

ma'nolarini anglatadi. Bugungi kunda mazkur so'z ko'proq "faoliyat olib borishning universal, ya'ni hamma uchun mos bo'lgan umumiy xususiyatlari va talablari majmuini" anglatadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Pedagogik-psixologik adabiyotlar va tadqiqot ishlarining tahlili "kompetensiya" tushunchasining turli xil ma'nolarini ajratish imkonini berdi [4, 121-b.]. Bular quyidagilar: ishlab chiqarish masalalarini yecha olish qobiliyati, aniq vaziyatlarda bilim va ko'nikmalarni qo'llay olish qobiliyati, tashkilot tomonidan sub'ektning sifatli faoliyatini shakllantirish maqsadida xodimga qo'yilgan talablar yig'indisi, xodimning xulq-atvor me'yorlarining jamiyat talablariga mosligi, bilim, ko'nikma va malakalar (BKM), qobiliyat, motiv, shaxs, kommunikativ sifatlar va boshqa tushunchalarning umumiy yig'indisi, xodimning sifatli ishga tayyorgarligi va ko'nikmasi, lavozim vazifalariga mas'ulligi va vakolati, bilim, ko'nikma va malaka, kasbiy muhim sifatlar, tashkilotchilik konteksti bilan birgalikda, kasbiy tajribani chuqur anglanishi, shaxsiy xususiyatlarni majmui, individuallik, samarali ishlab chiqarish faoliyati mezonlari, ijodkorlik va boshqalar [4, 125-b.].

Ijtimoiy-maxsus kompetensiyalarga ega bo'lish uchun quyidagilar talab qilinadi:

1. Yangi avlod talablariga javob berish. Bugungi yosh avlod axborot texnologiyalariga mukammal darajada ega bo'lishi mumkin, biroq bu yetarli emas. Ular: jamoada ishlay oladigan, madaniyatlararo muloqotga kirisha oladigan, axloqiy tanlovlardan qilishga qodir shaxslar bo'lishi kerak. Bu esa ijtimoiy va maxsus kompetensiyalarning uyg'un rivojlanishini taqozo etadi.

2. Mehnat bozorida raqobatbardoshlik. Zamonaviy ish beruvchilar mutaxassisni tanlayotganda quyidagilarga katta e'tibor beradi: tashabbuskorlik va liderlik, muammoli vaziyatlarni hal qila olish, professionallikni ijtimoiy qadriyatlar bilan uyg'unlashtira olish. Demak, faqat nazariy bilim emas, balki shaxsiy va ijtimoiy kompetensiylar ham muhim o'ringa ega.

3. Kasbiy faoliyatda ijtimoiy mas'uliyat. Aksariyat kasblarda insonlar bilan bevosita ishlash zarur. Bu sharoitda: etika va muloqot madaniyati, empatiya va muomala ko'nikmalari, madaniy va milliy qadriyatlarni hurmat qilish, talabaning yetuk mutaxassisiga aylanishida muhim o'rinni tutadi.

4. Global muammolar fonida fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish. Iqlim o'zgarishi, migratsiya, ijtimoiy tengsizlik kabi global masalalarga befarq bo'lmagan, faol fuqarolik ongiga ega yoshlar – barqaror jamiyat kafolatidir. Bu esa ta'lim jarayonida: tanqidiy fikrlash, ijtimoiy anglash, tashabbus bilan chiqish ko'nikmalarini shakllantirishni talab qiladi.

Ijodiy faollik – bu shaxsning o‘zida mavjud bilim, ko‘nikma va tajribalarni yangi g‘oya, yechim yoki mahsulot yaratish yo‘lida ongli ravishda qo‘llay olishi, mustaqil fikrlashi, yangilikka intilishi va bu jarayonda faol ishtirok etishidir. Ijodiy faollik insonning intellektual, emotsiyonal va motivatsion jihatdan faolligini o‘z ichiga oladi va u ta’lim, ilmiy izlanishlar, san’at, texnika, jamiyat hayotining barcha jabhalarida dolzarb muammo hisoblanadi.

Ijodiy faollik bir nechta asosiy tarkibiy qismlardan tashkil topadi. Bu qismlar bir-biri bilan uzviy bog‘langan va kompleks tarzda namoyon bo‘лади:

1. Intellektual tarkibiy qism quyidagilardan iborat: bilimlarning kengligi va chuqurligi, analitik va sintez qiluvchi tafakkur, mustaqil fikrlay olish qobiliyati, muammo qo‘yish va yechim topish salohiyati. Masalan: biror ilmiy yoki texnik muammoni tahlil qilish, uni ilgari surilgan nazariyalar asosida yechish.

2. Emotsional-irodaviy tarkibiy qism: ijobjiy hissiy holat (qiziqish, zavq, motivatsiya), sabr-toqat, qat’iyatlilik, ijodiy jarayonga berilish, ichki motivatsiyaning yuqoriligi. Masalan: kutilmagan muammolar paydo bo‘lganda ruhan tushmaslik, yangilik yaratishga intilish.

3. Motivatsion tarkibiy qism quyidagilardan iborat: yangilik yaratishga bo‘lgan ehtiyoj, o‘z-o‘zini namoyon qilish istagi, ichki rag‘bat (ichki ishonch, shaxsiy maqsadlar), tashqi rag‘batlar (mukofot, tanlovlari, e’tirof). Masalan: biror loyiha ustida ishslashda ichki ishtyoq va tashqi mukofotlar orqali ilhomlanish.

4. Amaliy (praktik) tarkibiy qism: g‘oyalarni real loyihaga aylantira olish, yaratuvchanlik ko‘nikmalari (dizayn, yozuv, texnologiya va boshqalar), eksperiment o‘tkaza olish qobiliyati, ijodiy natijalarni jamiyat ehtiyojiga yo‘naltirish. Masalan: yangi o‘quv metodikasini ishlab chiqish yoki san’at asarini yaratish.

5. Kommunikativ tarkibiy qismlar: o‘z g‘oyasini boshqalarga yetkaza olish, hamkorlikda ishlay olish qobiliyati, ijtimoiy faollik va ta’sirchanlik. Masalan: ijodiy guruh bilan ishslash, loyihalarni taqdim etish va himoya qilish.

Ijodiy faollik - bu ko‘p qirrali, kompleks jarayon bo‘lib, u shaxsning bilim, hissiyot, motivatsiya va amaliy harakatlarini o‘zida birlashtiradi. Ijodiy faollikni rivojlantirish orqali shaxsning erkin fikrlash qobiliyati, muammolarga yangicha yondashuvi, o‘zini anglash va o‘zini ifoda qilish salohiyati ortadi. Bugungi kunda ta’lim tizimi, innovatsion sohalar, madaniyat va texnologiyada ijodiy faollik alohida e’tiborga loyiqdir.

Bugungi kunda ta’lim tizimining asosiy maqsadi – yetuk, ijtimoiy faol, kasbiy jihatdan raqobatbardosh, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega mutaxassislarini tayyorlashdan iborat. Buning uchun talabalarni nafaqat nazariy bilimlar bilan qurollantirish, balki ularning ijtimoiy-maxsus kompetentligini shakllantirish va

rivojlantirish zarur bo‘ladi. Bu kompetentlik turi - kasbiy faoliyatning ijtimoiy kontekstdagi samaradorligini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi.

1. Ijtimoiy-maxsus faollikning mazmuni. Ijtimoiy-maxsus faollik - bu talabaning o‘z kasbiy sohasidagi ijtimoiy jarayonlarni anglay olish, ular bilan samarali muloqotga kirishish, kasbiy muhitdagi ijtimoiy munosabatlarni boshqarish va jamoaviy faoliyat yuritish qobiliyatidir. Bu kompetentlik quyidagi komponentlardan tarkib topadi: ijtimoiy bilimlar (sotsiologiya, psixologiya, madaniyatshunoslik asoslari), axloqiy-me’yoriy qarashlar (etika, kasb madaniyati), muloqot kompetentligi (kasbiy so‘zlashuv, jamoada ishslash), muammoni hal qilish ko‘nikmalar (ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni anglab yetish va ularga echim topish).

2. Ijtimoiy-maxsus faollikni shakllantirishdagi asosiy tamoyillar. Ijtimoiy-maxsus kompetentlikni rivojlantirishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilish muhimdir: integrallik tamoyili: umumiy ta’lim fanlari bilan kasbiy fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlash, faollik tamoyili: talabalarni mustaqil fikrlashga, muammoni tahlil qilishga undash, dialog asosida ta’lim: talabalar o‘rtasida erkin fikr almashinuvini yo‘lga qo‘yish, refleksiya tamoyili: o‘quv faoliyati natijalarini tahlil qilish, o‘zini baholash ko‘nikmasini rivojlantirish.

Ijtimoiy-maxsus kompetentlik - bu talabaning jamiyatda samarali faoliyat yuritishi, kasbiy vazifalarni ijtimoiy muhit bilan uyg‘unlikda bajarishi, kommunikativ, axloqiy, madaniy va kasbiy malakalarga ega bo‘lish qobiliyatidir.

Talabalar ijtimoiy-maxsus kompetentligini shakllantirish mexanizmlari:

1. Ta’lim mazmuni orqali shakllantirish. O‘quv dasturlarini yangilash: ijtimoiy va kasbiy kompetensiyalarni qamrab olgan integratsiyalashgan fanlar (masalan, “Kasb etikasi”, “Ijtimoiy psixologiya”). Modulli o‘qitish: kasbiy holatlar asosida tahliliy fikrlashni o‘rgatish. Tanqidiy fikrlash, axloqiy yechim qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

2. Amaliy mashg‘ulotlar va loyiha faoliyati. Kasbiy-amaliyotlar (praktikalar) orqali real ijtimoiy muhitda ishslash. Loyihalar va startaplar: talabalar o‘z ijtimoiy tashabbuslari bilan ishtirok etishi. “Service Learning” (xizmat orqali o‘rganish): talabalarning jamoaviy ijtimoiy loyihalarda qatnashuvi.

3. Murabbiylilik va mentorlik tizimi. O‘qituvchi-mentorlar yordamida shaxsiy va kasbiy rivojlanishga yo‘naltirish. Yoshlar yetakchilari, talabalar ittifoqi, ijtimoiy faollar bilan hamkorlikda ishslash.

4. Ijtimoiy muhit va talaba hayotini tashkil etish. Ijtimoiy-psixologik xizmatlar faoliyati. Talabalar klub va to‘garaklari (debat, teatr, liderlik mashg‘ulotlari). Volontyorlik va jamoatchilik ishlarida ishtirok.

5. Axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish. Raqamli kompetensiyalar: internet madaniyati, ijtimoiy tarmoqlarda mas'uliyatli ishtirok. Masofaviy va aralash o'qitish platformalari orqali shaxsiy ta'lif trayektoriyalarini yaratish.

Kutilayotgan natijalar: talabalarning ijtimoiy mas'uliyat hissi rivojlanadi. Kasbiy malakasi va vazifalarga tayyorlarligi ortadi. O'z fikrini erkin va asosli ifodalash, jamoada ishlash ko'nikmalari shakllanadi. Ijtimoiy muammolarga befarq bo'limgan, fuqarolik ongiga ega shaxs sifatida yetishadi.

XULOSA

Talabalarda ijtimoiy-maxsus kompetentligini shakllantirish - bu nafaqat kasbiy tayyorlarlikning muhim yo'nalishi, balki shaxs sifatida ijtimoiy hayotga tayyorlashning ham asosi hisoblanadi. Bu boradagi didaktik yondashuvlar va ta'lif texnologiyalari uzviy ravishda uyg'unlashtirilgan taqdirda, natijadorlikka erishish mumkin bo'ladi. Shu bois, ijtimoiy-ma'naviy hamda kasbiy jihatdan barkamol mutaxassisni tayyorlashda ijtimoiy-maxsus kompetentlikning rivojiga alohida e'tibor qaratish zarur. Inson xatti-harakatlarida jodiy faoliyat natijasidagi yangilik produktiv yaratish hisoblanadi. Ushbu turdagи faoliyatning asosi ijodiydir. Talabalarda ijodiy faoliyatni shakillantirish talabalarni yangilikka va yangi g'oyalarni yaratishga, o'z kasbiga nisbatan ijodkorona yondoshishga undash ta'lif tizimini samarali tashkil qilish uchun katta ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR:

1. Qurbonov A., Tojimatov A. Pedagogika. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2022.
2. Tuganova D.A. Kompetensiyaviy yondashuv asosida kasbiy talimni takomillashtirish. – Monografiya, Toshkent: 2021.
3. Tuxliyeva R.X. Ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2022.
4. Rychen, D.S., Salganik, L.H. Key Competencies for a Successful Life and a Well-Functioning Society. – OECD Publishing 2003.